

Matematika va mexanikaning dolzarb masalalari – Markaziy Osiyo ayol matematiklari uchrashuvi – CAWMA-2018

2018-yil 25-26-oktabr kunlari Xorazm Ma'mun akademiyasida va Urganch Davlat Universiteti hamkorligida **“Actual Problems of Mathematics and Mechanics - Meeting of women of mathematicians in Central Asia - CAWMA - 2018 (Matematika va mexanikaning dolzarb masalalari – Markaziy Osiyo ayol matematiklari uchrashuvi – CAWMA-2018)”** ilmiy-amaliy anjumani bo'lib o'tdi. Unda respublikamiz va Markaziy Osiyodan 60 nafarga yaqin matematik olim ayollar qatnashdi. Ushbu anjuman respublikamizda matematika va mexanika sohasida ayol-matematiklar rolini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, anjuman ishida “O'zbekiston matematiklar jamiyati” qoshida Ayollar bo'limini ochish masalasi ko'rib chiqilib, 2019-yil 8-martgacha bo'limning nizomini ishlab chiqishga kelishib olindi.



